

DISGRAFIYA – YOZMA NUTQ PATOLOGIYASI

Abdullajonova Madina To‘lanboy qizi

“O‘zmilliybank” AJ Ijro apparati Devonxona yetakchi mutaxassisi

(madinaabdullajonova0999@gmail.com)

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada yozma nutq patologiyasi bo‘lgan disgrafiya tushunchasi tahlilga tortilgan, ushbu patologiyaning boshqa ta’limiy nuqsonlar bilan o‘xshash va farqli jihatlari xususida mulohaza yuritilgan va umumiy xulosalar chiqarilgan. Maqolani yozishda tasniflash, tavsiflash metodlaridan foydalanilgan, shuningdek, mavzu doirasida tadqiq etilishi lozim bo‘lgan muammolar ko‘rsatib o‘tilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Adolf Kussmaul, disleksiya, “So‘z ko‘rligi”, disgrafiya, disorfografiya, agrafiya, grafomotor qobiliyat, orfografik kodlash, orfografik sikl.*

DYSGRAPHIA – WRITTEN SPEECH PATHOLOGY

***Abstract:** In this article, the concept of dysgraphia, which is a pathology of written speech, is analyzed, the similarities and differences of this pathology with other educational disabilities are discussed, and general conclusions are drawn. The methods of classification and description were used in writing the article, as well as the problems that should be researched within the topic were indicated.*

***Key words:** Adolph Kussmaul, dyslexia, "Word blindness", dysgraphia, dysorphography, agraphia, graphomotor ability, orthographic coding, orthographic cycle.*

KIRISH. Til va nutq masalalari tilshunoslik falsafa fani tarkibida bo‘lgan davrlardan buyon tadqiq etib kelinayotganligiga qaramay, hali o‘rganilishi lozim bo‘lgan, dolzarb ahamiyatga ega muammolar yetarlicha. Xususan, nutqiy faoliyatning ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan yozma nutq faoliyati psixolingvistik jihatdan o‘tgan asrga kelibgina tadqiqot obyektiga aylandi. Yozma nutq faoliyatining murakkab psixolingvistik mohiyatini yoritish, yozuv o‘zlashtirish jarayonining yozma nutq h yaratadi. Bu esa, yozma nutq muammolarining psixolingvistik va neyrolingvistik jihatlari tadqiq etish, muammoning asl ildizini topish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada aynan yozma nutq faoliyatining buzilishi – disgrafiya tushunchasi tahlilga tortilgan, shuningdek, yozish va o‘qish faoliyati bilan bog‘liq boshqa ta’limiy nuqsonlardan farqli jihatlari ko‘rsatilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘qish va yozishdagi buzilishlar doirasida olib borilgan dastlabki tadqiqotlar nemis olimi, professor Adolf Kussmaul (1822-1902) nomi bilan bog‘lanadi. Olim o‘zining davomli kuzatishlari va tadqiqotlariga tayanib, 1877-yilda nashr qilingan nutqning buzilishi haqidagi tibbiyotga oid risolasida o‘ndan ziyod nutq buzilishlari haqida batafsil ma’lumot beradi. Adolf Kussmaul disleksiyani (bu borada olib borilgan ilk izlanishlarda disleksiya va disgrafiya atamasi bir tushunchani ifodalab keladi) nutqiy faoliyatning mustaqil patologiyasi sifatida ko‘rsatadi va “so‘z ko‘rligi” deb ataydi. 1883-yilda bu tushuncha nemis oftalmologi Rudolf Berlin tomonidan “disleksiya” atamasi bilan nomlandi (yun. dys - “qiyin”, lexia “so‘zlar” degan ma’noni anglatadi).

XX asrning boshlarida ingliz olimi Jeyms Xinshevlud va amerikalik professor Orton bolalardagi disleksiyani katta ishtiyoq bilan o‘rganib, 60-70-yillarda olib borilgan tadqiqotlarga zamin yaratdi.

O‘qish va yozishdagi buzilishlarning mexanizmlari, xususiyatlari, tasnifi, ularni aniqlash, bartaraf etish usullari haqidagi zamonaviy ilmiy qarashlar asta-sekin rivojlanib bordi. Rossiyada o‘qish va yozishdagi anomaliyalar haqida ta’limotning rivojlanishi S.S.Mnuxin, R.A.Tkachev, M.E.Xvattsev, R.E.Levina, A.R.Luriya, OA.Tokareva, V.K.Orfinskaya, R.I.Spirova, L.F.Spirova, A.N.Kornev, I.N.Sadovnikova nomlari bilan uzviy bog‘liq. Disgrafiya ta’limotining rivojlanish tarixi davomida ushbu murakkab nutq buzilishining tibbiy (S.S.Mnuxin, R.A.Tkachev, A.N.Kornev), psixofiziologik (O.A.Tokareva va boshqalar), psixolingvistik va psixologik-pedagogik (R.E.Levina, R.I.Lalayeva, E.F.Sobotovich, I.N.Spirova va boshqalar), lingvistik (V.K.Orfinskaya) jihatlarini tadqiq etish orqali muammoga kompleks yondashuv vujudga keldi.

Mazkur muammo neyropsixologiya, neyrofiziologiya, logopediya, psixolingvistika, pedagogika singari sohalar doirasida bir asrdan ko‘proq vaqt davomida tadqiq etib kelinganligiga qaramay, hozirga qadar eng murakkab va dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

MUHOKAMA

Ko‘pchilik olimlar tomonidan disgrafiya muntazam, tez-tez uchraydigan o‘ziga xos xatolar orqali namoyon bo‘luvchi yozish jarayonining qisman buzilishi sifatida ta’riflanadi. Disgrafiya nafaqat pedagogik, balki psixologik, sotsial, qolaversa, klinik muammodir. Kasalliklarning xalqaro tasnifiga ko‘ra, tibbiy statistika uni alohida patologiya sifatida ajratmaydi, “maktab ta’limida zaruriy ko‘nikmalarning shakllanishidagi o‘ziga xos buzilishlar” umumiy nomi ostida birlashtiriladi. Bunday

anomaliyalarga disgrafiyadan tashqari disleksiya, dispraksiya, diskalkuliya va boshqa ta'limiy nuqsonlar ham kiradi. Ushbu buzilishlarning o'ziga xos deb ta'riflanishi ularning aqliy zaiflik bilan bog'liq emasligi, o'ziga xos mexanizmga egaligi bilan bog'liq. Ta'limiy nuqsonlar bir qancha umumiy jihatlarga ega. Miya disfunktsiyasi belgilarining mavjudligi, alohida kognitiv funksiyalarning rivojlanishidagi nomutanosiblik, muayyan ta'limiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ko'nikmalarni (o'qish, yozish, hisoblash, nutq so'zlash va hokazo) egallashda barqaror qiyinchiliklar shular jumlasidandir.

Logopediya, pedagogika, psixolingvistika va tibbiyotga doir adabiyotlarda "disgrafiya" atamasi yozuv o'zlashtirish, yozma nutq faoliyatidagi jiddiy qiyinchiliklarni ifodalash uchun qo'llaniladi.

Disgrafiya neyrolingvistika sohasida atroflicha tadqiq etilganligiga qaramay, ko'p jihatlari bilan hali tadqiqot obyekti bo'la oladigan nutqiy patologiyadir. Bolalar yozma nutqining bu holati nisbatan kechroq – XIX asrning oxirlaridan chuqur o'rganila boshlandi. Ayrim ilmiy adabiyotlarda disgrafiya tushunchasini disleksiya, disorfografiya hodisalari bilan tenglashtirish holatlari kuzatiladi. Shuningdek, disgrafiya va agrafiya tushunchalariga yondashuvda ham chalkashliklar kuzatiladi: "Orttirilgan disgrafiya miya sohasining ma'lum bir qismi biror hodisa (jumladan, miya shikastlanishi, nevrologik kasallik yoki degenerativ sharoitlar) natijasida buzilganida yuzaga keladi, natijada ilgari olingan ko'nikmalar yo'qoladi"¹.

Bizningcha, yuqorida nomlari qayd etilgan terminlar mohiyatan bir xil emas. Dastavval, disorfografiya va disgrafiya o'rtasidagi asosiy farqli jihatga to'xtalsak:

Rus psixolingvistikasida "disgrafiya" va "disorfografiya" atamaları o'rtasiga ma'lum chegara qo'yilgan. Ularning ikkisi ham patologiya hisoblanib, differensial diagnostika uchun farqlovchi mezon sifatida imlo tamoyili belgilangan. Biroq, bizningcha, disorfografiyani patologiya darajasida baholash o'rinli emas. Albatta, bu borada mazkur tushunchaning mohiyatini anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Disorfografiya terminini ma'lum omillar ta'sirida imloviy xatoliklar bilan yozishga nisbatan qo'llash lozim. Aksariyat hollarda orfografiya qoidalarini o'zlashtirmaslik, bee'tiborlik, orfoepik va orfografik tamoyil o'rtasidagi sezilarli farqlanish, lahja va shevalarning o'ziga xos xususiyatlari singari omillar disorfografiyaga sabab bo'lishi mumkin. Umuman olganda, disgrafiya va disorfografiya o'rtasida quyidagi asosiy farqli jihatlar mavjud:

1. Disgrafiya xatolar muntazam takrorlanuvchi va o'ziga xosdir, bu xususiyat uni "fiziologik" (B.G.Ananiyevga shunday nomlaydi) xatolardan farqlashga imkon

¹ Peter J.Chung, Dilip R. Patel, Iman Nizami. Disorder of written expression and dysgraphia: definition, diagnosis, and management. Transl Pediatr 2020;9 (Suppl 1): – P. 46.

beradi. Disorfofografiya “o‘suvcchi” xatoliklar orqali namoyon bo‘lib, yozuv o‘zlashtirish bosqichida bo‘lgan bolalarda kuzatilishi tabiiy hisoblanadi. Yozuv malakasi shakllanib borgan sari, xatoliklar soni qisqarib boradi. Disgrafiya esa, yoshga u qadar aloqador emas, va aksincha, ushbu muammo bolada yildan-yilga kuchayib, boshqa faoliyat turlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatish ehtimoli yuqori.

2. Disgrafik xatolar yozish faoliyatida ishtirok etuvchi oliy psixik funksiyalarning – tovushlarni talaffuzga ko‘ra farqlash, fonematik analiz va sintez, optik-fazoviy funksiyalar, nutqning leksik-grammatik tuzilishini tahlil etish funksiyalarining rivojlanmaganligi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Elementar funksiyalardagi kamchiliklar ham yozuv buzilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ammo bu vaziyatda yozish faoliyatidagi kamchiliklarni disgrafiyaning emas, disorfofografiyaning belgisi sifatida qabul qilish zarur.

3. Yozuvdagi o‘ziga xos xatoliklar sintetik bosqichdagi maktab bolalarida kuzatilganida disgrafik sifatida tavsiflanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda yozish tabiatan va disgrafiklarga o‘xshash ko‘plab tushunarsiz xatoliklar bilan birga kuzatilishi mumkin. Biroq, maktabgacha yoshdagi bolalarda yozish jarayonini ta’minlaydigan ko‘plab aqliy funksiyalar hali ham yetarli darajada shakllanmagan. Shuning uchun bu xatolar tabiiy, “fiziologik”.

Umuman olganda, disorfofografiya imlo ko‘nikmalarini shakllantirish bilan bog‘liq qiyinchiliklarni ifodalaydi. Ya’ni o‘quvchi imlo qoidalarini yaxshi o‘zlashtirmaydi yoki o‘zlashtirgan bo‘lishiga qaramay, amalda qo‘llash masalasida oqsaydi, jumla tarkibidagi so‘zlarni imloviy xatolar bilan yozadi. Disgrafiya esa bola yozuvida xatolarning namoyon bo‘lishi imlo qoidalarini yaxshi o‘rganmaganligining natijasi emas, bu “o‘ziga xos” xatoliklar bo‘lib, uning vujudga kelishini faqat psixolingvistik jihatdan tushuntirib berish mumkin.

Disleksiya va disgrafiya tushunchalarini ham bir xil patologiyaga nisbatan qo‘llash to‘g‘ri emas. Seliverstov tomonidan yaratilgan logopedik lug‘atda disleksiya doimiy xarakterdagi takroriy xatolarda namoyon bo‘ladigan o‘qish faoliyatining qisman buzilishi sifatida ta’riflanadi va terminning mazkur izohi, bizningcha ham to‘g‘ri. Albatta, disgrafiya va disleksiyaning kesishish nuqtalari mavjudligini inkor etib bo‘lmaydi: mazkur patologiyalar sof shaklda kam uchraydi. Ko‘pincha yozishning buzilishi matnni o‘qish, shuningdek, matn mazmunini idrok qilish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Yozuvda qo‘pol grammatik xatolarga yo‘l qo‘yadigan bolalarda o‘qish jarayonida ham belgilangan me’yorlardan og‘ish holati kuzatiladi. Shu boisdan, nutq terapevtlari bunday bolalarga “o‘qish va yozish buzilishi” tashxisini qo‘yishlari mumkin.

Yozish va o'qish bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lganligi bois, yozishning buzilishi (disgrafiya, agrafiya) ko'p holda o'qish buzilishi (disleksiya, aleksiya) bilan birga keladi.

Agrafiya terminiga kelsak, ushbu atama tovush va harf o'rtasidagi tabiiy aloqadorlikni ta'minlaydigan psixofiziologik jarayonlarning buzilishi, yozma nutq faoliyatini to'liq egallay olmaslik yoki ushbu malakani qisman va ko'pincha, butunlay yo'qotilishiga nisbatan ishlatiladi. Ko'pincha, bosh miya chap yarimsharining nutqqa javob beruvchi qismlaridagi shikastlanish yozish qobiliyatining yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

Psixolingvistika va logopediya sohasida disgrafiya tushunchasini izohlashda xilma-xillik kuzatiladi. Xalqaro Disleksiya Assotsiatsiyasi (2009) disgrafiyani quyidagicha ta'riflaydi: "Disgrafiya bu o'quvchilarning yozuv malakasini oson egallashi hamda o'z fikrlarini ifodalashda yozma tildan to'g'ri foydalana olishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi o'ziga xos buzilish".

Rus logopedi R.I.Lalayeva mazkur termini quyidagicha izohlaydi: disgrafiya – yozish jarayonida ishtirok etadigan yuqori psixik funksiyalarning yetarli darajada shakllanmaganligidan kelib chiquvchi, muntazam takrorlanuvchi xatolar orqali namoyon bo'ladigan yozuv faoliyatining qisman buzilishi¹.

I.N.Sadovnikovning fikricha, disgrafiya boshlang'ich sinf o'quvchilarida kuzatiladigan yozuv o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar bo'lib, uning asosiy belgisi doimiy hamda o'ziga xos xatolarning mavjudligidir. Bunday xatolarning yuzaga kelishini aqliy rivojlanishning ortda qolishi, yoki ko'rish va eshitishga aloqador jiddiy muammolar bilan ham, o'quvchilarning ta'lim olishga nisbatan dangasaligi bilan ham bog'lab bo'lmaydi².

A.N.Kornevning mulohazalari ham yuqoridagi fikrlarga o'xshash: "Disgrafiya – intellekt va og'zaki nutqning yetarli rivojlanish darajasiga ega, ko'rish va eshitish qobiliyati normada bo'lgan bolalardagi yozuv ko'nikmalarini to'liq o'zlashtira olmaslik".

A.L.Sirotyuk disgrafiyaning miya yarim korteksining disfunktsiyasi natijasida yozish qobiliyatining qisman buzilishi ekanligini ko'rsatadi.

Disgrafiya terminiga V.I.Seliverstova tomonida yaratilgan logopedik lug'atda quyidagicha izoh keltiriladi:

Disgrafiya [*gr.* dys – to'lash, grapho – yozish, tasvirlash] – doimiy va takroriy xatolar kuzatiladigan yozish jarayonining qisman buzilishi: harflarning buzilishi va

¹ Лалаева Р.И., Бенедиктова Л.В. Нарушение чтения и письма у младших школьников. Диагностика и коррекция. – Ростов н/Д: Феникс, СПб: Союз, 2004. – С.15.

² Садовникова И.Н. Нарушения письменной речи и их преодоление у младших школьников. – М.: Владос, 1997. – С.6.

almashtirilishi, soʻzning tovush-boʻgʻin tuzilishining hamda alohida soʻzlarning gap va matn tarkibida buzilishi, shuningdek, yozuvdagi agrammatizmlar¹.

Disgrafiya tushunchasiga turlicha yondashuvlarni umumlashtirgan holda, mazkur termini quyidagicha taʼriflash mumkin: disgrafiya yozma nutq faoliyatida ishtirok etadigan yuqori aqliy funksiyalarning buzilishi natijasida kelib chiqadigan, oʻziga xos, takrorlanuvchi xatolar orqali namoyon boʻluvchi yozish jarayonining qisman buzilishidir. Unda muntazam ravishda takrorlanadigan xatolar kuzatiladi: harflarni almashtirish, soʻz tarkibiga keraksiz harflarni kiritish va aksincha – harf, boʻgʻin, hattoki butun boshli soʻzlarni qoldirib ketish, oʻqib boʻlmas darajada tushunarsiz shaklda yozish va hokazolar.

Disgrafiya chalingan insonlar yozish qobiliyatini rivojlantirish uchun zarur boʻlgan miya sohalari oʻrtasidagi aloqalarni oʻrnata olmaydilar. Bu esa orfografik kodlash (harflar va soʻzlarni xotirada saqlash), orfografik sikl (orfografik kodlash va grafomotor chiqish orasidagi umumiy bogʻliqlik) va grafomotor chiqish (yozishning mexanik mahorati)ga taʼsir qilishi mumkin.

Yozuv malakasini muvaffaqiyatli oʻzlashtirish nutqning barcha muhim jihatlarini: tovush talaffuzi, fonematik idrok va fonematik tahlil, nutqning leksik-grammatik tomonining shakllanish darajasi bilan uzviy bogʻliq. Shu boisdan disgrafiyaning rivojlanishi alaliya, dislaliya, dizatriya, rinolaliya, afaziya singari ogʻzaki nutq muammolarini keltirib chiqaradigan bir qator omillarga asoslanishi mumkin.

Odatda, disgrafiya boshlangʻich sinfda, bola yozuvning dastlabki koʻnikmalarini oʻzlashtirib boʻlganidan soʻng aniqlanadi. Disgrafiyaning oʻziga xos belgisi bola yozuvda “tushunarsiz” xatolarning tez-tez takrorlanishidir. Patologiya keyinchalik yozma nutq faoliyatiga boʻlgan talabning ortishi bilan oʻzini yaqqolroq namoyon qiladi. Yuqori sinfga oʻtgach disgrafiya alomatlari mavjud oʻquvchilarni osonlik bilan ajratib olish mumkin boʻladi.

T.V.Axutina yozma nutq faoliyatini oliy psixik funksiyalarning sistemali tuzilishiga asosan murakkab funksional tizim sifatida baholaydi². Ayrim tadqiqotchilarning qarashlarga koʻra, yosh oʻquvchilarga nisbatan buzilish haqida emas, balki yozuv oʻzlashtirishdagi qiyinchiliklar haqida gapirish mantiqan toʻgʻriroq, sababi bu davrda bolalar yozuv koʻnikmalarini endigina oʻzlashtira boshlagan boʻladilar³. Biz mazkur qarashni qoʻllab-quvvatlaymiz, shu bilan bir qatorda, yozuv buzilishi terminini keng maʼnoda qoʻllashni tavsiya etamiz.

¹ Селиверстова В.И. Понятийно-терминологический словарь логопеда. – М.: Владос, 1997. – С. 400.

² Ахутина Т.В. Нейропсихологический анализ ошибок на письме. М.: Logomag, 2018. – С. 76.

³ Садовникова И.Н. Нарушения письменной речи и их преодоление у младших школьников. – М.: Владос, 1997. – С. 6.

Tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'lishicha, disgrafiya qizlarga nisbatan o'g'il bolalarda ko'proq uchraydi¹. Bu ilmiy xulosa yozuv o'zlashtirish jarayoniga gender jihatdan yondashuv zaruratini keltirib chiqaradi.

XULOSA

Umuman olganda, o'quvchilarning disgrafiyaning namoyon bo'lishi va progressiv dinamikasiga sabab bo'luvchi psixologik xususiyatlarini ochib berish davomli kuzatish va nazariy asoslashni talab qiladi. Disgrafiya muammosi o'ta murakkab hamda ko'p qirrali xarakterga ega bo'lganligi bois, butun miya sohalari va psixik faoliyat shakllarining o'zaro uzviy bog'liqligini hisobga olgan holda tizimli ravishda tadqiq etilishi zarur.

Disgrafiya bolaning yozma nutq faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, bu esa uning tobora murakkablashib borayotgan ijtimoiy-madaniy jamiyatda o'z o'rnini topishida duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarga sabab bo'lishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlangan omillar o'quvchilarda disgrafiyaning progressiv dinamikasini aniqlash va ularni bartaraf etishni amalga oshirish uchun uslubiy materiallarning ishlab chiqilishini taqozo etadi. Yozma nutq muammolarini o'rganish yozma nutq faoliyatining murakkab tabiatini tushunishga, disgrafiyaning tuzatishga yo'naltirilgan usullarning yaratilishiga, bu esa mazkur usullarni ta'lim tizimida, shuningdek, logopediya sohasida qo'llash va savodxonlik darajasini yaxshilashga imkon beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ахутина Т.В. Нейропсихологический анализ ошибок на письме. М.: Logomag, 2018.
2. Berninger V.W, May M.O. Evidence-based diagnosis and treatment for specific learning disabilities involving impairments in written and/or oral language. J Learn Disabil. 2011.
3. Лалаева Р.И., Бенедиктова Л.В. Нарушение чтения и письма у младших школьников. Диагностика и коррекция. – Ростов н/Д: Феникс, СПб: Союз, 2004.
4. Peter J, Chung, Dilip R.Patel, Iman Nizami. Disorder of written expression and dysgraphia: definition, diagnosis, and management. – Translational Pediatrics, Oct.,2019.
5. Садовникова И.П. Нарушения письменной речи и их преодоление у младших школьников. – М.: Владос, 1997. - 255 с.
6. Селиверстова В.И. Понятийно-терминологический словарь логопеда. – М.: Владос, 1997.

¹ Berninger V.W, May M.O. Evidence-based diagnosis and treatment for specific learning disabilities involving impairments in written and/or oral language. J Learn Disabil. 2011. – P. 83.